

## QADIMGI FINIKIYA DAVLATI

Ummatov Shexroz

SHDPI 1- BOSQICH TALABA

Doniyorbek Otamurodov

SISHDPI 2- BOSQICH TALABASI

**Annotatsiya:** Qadimgi Finikiya davlati O'rtta yer dengizi sharqiy qirg'oqlarida joylashgan, miloddan avvalgi 3-ming yillikdan boshlab rivojlangan shahar-davlatlar tizimidan iborat bo'lgan. Ushbu davlat o'zining dengizchilik san'ati, savdo-sotiqdagi muvaffaqiyatlari va madaniy yutuqlari bilan ajralib turgan. Finikiyaliklar tarixda birinchi bo'lib alifboni yaratib, dunyo madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan. Ularning savdo koloniyalari, xususan, Karfagen, butun O'rtta yer dengizi hududida savdo va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilgan. Ammo Finikiya davlatlari kuchli qo'shni imperiyalarning bosqini tufayli o'z mustaqilligini yo'qotdi. Ushbu maqola Finikiyaning geografik joylashuvi, siyosiy tuzilishi, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir muhim ma'lumotlarni qamrab oladi.

**Annotation:** The ancient Phoenician state was a system of city-states located on the eastern shores of the Mediterranean Sea, which developed from the 3rd millennium BC. This state was distinguished by its maritime art, commercial successes and cultural achievements. The Phoenicians were the first in history to create an alphabet and made a significant contribution to the development of world culture. Their trading colonies, in particular Carthage, served as a center for trade and economic development throughout the Mediterranean region. However, the Phoenician states lost their independence due to the invasion of powerful neighboring empires. This article covers important information about the geographical location, political structure, economic and cultural life of Phoenicia.

**Аннотация:** Древнее финикийское государство располагалось на восточном берегу Средиземного моря и представляло собой систему городов-государств, сложившуюся с III тысячелетия до нашей эры. Эта страна отличалась морским искусством, коммерческим успехом и культурными достижениями. Финикийцы первыми в истории создали алфавит и внесли большой вклад в развитие мировой культуры. Их торговые колонии, особенно Карфаген, служили торговому и экономическому развитию всего Средиземноморского региона. Но финикийские государства потеряли свою независимость из-за вторжения могущественных соседних империй. В этой статье представлены важные сведения о географическом положении, политическом устройстве, экономической и культурной жизни Финикии.

**Kalit so'zlar:** Finikiya, O'rtta yer dengizi, Tir va Sidon, Karfagen, Parpur buyog'i;

Qadimgi Finikiya — sharqiy O'rtta yer dengizi bo'ylarida joylashgan va miloddan avvalgi 3-ming yillikning oxiridan boshlab o'z tarixiy taraqqiyotini boshlagan qadimiy davlatlardan biri. U hozirgi Livan, Suriya va Falastin hududlarini qamrab olgan. Finikiyaliklar o'z dengizchilik san'ati, savdo tarmog'i va yozuv ixtirosi bilan dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan.

Geografik joylashuvi: Finikiya O'rtta yer dengizi sharqiy qirg'oqlarida, tog'lar va dengiz oralig'idagi tor hududda joylashgan edi. Bu geografik joylashuv ularni dengizchilik va savdo-sotiqqa yo'naltirdi. Hududdagi yirik shahar-davlatlar Tir, Sidon, Biblos va Arvad edi.

**Siyosiy tuzilma:**Finikiya markazlashgan davlat emas, balki bir-biridan mustaqil bo'lgan shahar-davlatlar konfederatsiyasidan iborat edi. Har bir shahar o'z podshosi yoki hukmdori tomonidan boshqarilar edi. Ushbu shaharlar o'zaro hamkorlik qilgan bo'lsa-da, ko'pincha bir-biriga raqiblik ham qilgan.

**Iqtisodiy hayot:**Finikiyaliklar dengiz savdosi va hunarmandchilik sohasida juda rivojlangan edilar. Ular O'rta yer dengizi bo'ylab savdo koloniyalari barpo etishgan. Ayniqsa, purpur bo'yoq (deniz chig'anoqlaridan olinadigan qimmatli binafsha rang) va shisha buyumlari bilan mashhur bo'lgan. Ularning savdo koloniyalari orasida eng yiriklaridan biri Karfagen edi.

**Yozuv va madaniyati:**Finikiyaliklarning eng muhim meroslaridan biri bu alifbodir. Finikiya alifbosi keyinchalik yunon va lotin alifbosi asosini tashkil etgan. Ular shuningdek, boy diniy madaniyatga ega bo'lib, ko'plab xudolarga sig'inishgan. Ushbu xudolar orasida Baal va Astarta mashhur bo'lgan. Finikiya kemalari o'sha davrning eng ilg'or va chidamli kemalari bo'lgan. Ular nafaqat savdo, balki harbiy maqsadlarda ham foydalanilgan. Dengizchilik ularni yangi hududlarni kashf etishga va uzoq masofalarga savdo ekspeditsiyalarini amalga oshirishga imkon berdi.<sup>1</sup>Miloddan avvalgi 1-ming yillikda Finikiya davlatlari asta-sekin kuchli qo'shni davlatlar — Assuriya, Bobil va Fors imperiyasi ta'siri ostida qoldi. Oxir-oqibat Aleksandr Makedonskiy istilosi natijasida Finikiya mustaqilligi tugadi. O'rta dengizning sharqiy sohilidagi qad. viloyat. Rivoyatlarga ko'ra, Finikiyaning aholisi Eritreya dengizi sohillaridan kelgan; ayrim finikiyalik tarixchilarning fikricha, finikiyaliklar Finikiyaning tub aholisidir. Miloddan avvalgi 5—4 ming yillikda Finikiya o'zining qulay geografik joylashuviga ko'ra, Mesopotamiya va Nil vodiysi aholisi bilan faol savdo-sotiq olib borgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillik boshlarida quldorlik shahardavlatlari: Ugarit (RasShamra), Sidon (Sayda), Beruta (Bayrut), Arvad(Arad), Tir (Sur) va boshqa vujudga kelib, ular miloddan avvalgi 12-asrgacha Misr fir'avnlari qo'l ostida bo'lgan. Miloddan avvalgi 13-asr oxiri – 12-asrning boshida Finikiya nihoyat Misr mustamlakasidan xalos bo'lgan. Miloddan avvalgi 1ming yillikda Finikiya O'rta dengiz sohil bo'yining Markaziy va G'arbiy qismini egallab, bu yerlarga kuplab finikiyalik savdogarlar va qaroqchilar kelishi avj olgan. Tasos o.da temir rudasi konlari ochilgan, Melkart xudosi ibodatxonasi va kichik qishloq bunyod etilgan. Atlantika okeaniga tutashgan Shimoliy Afrika soxillarida, Like, Ispaniyaning jan. kismida, Gades, Malaka, Seksi, Abdera, Sitsiliyada Motiya, Panorm va Sardiyada Nora shaharlari qad ko'targan. Finikiyada hunarmandchilik, savdo-sotiq, kemasozlik juda taraqqiy qilgan; dengiz yo'llaridan keng foydalanilgan. Shaharlar o'rtasida hukmronlik uchun kurashlar natijasida kucheizlangan Finikiya miloddan avvalgi 8—7-asrlarda Ossuriyaga, miloddan avvalgi 6-asrda Bobilga, miloddan avvalgi 539 yildan 332 yilgacha axomaniylar davlatiga bo'ysungan. Finikiya miloddan avvalgi 332 yildan makedoniyalik Aleksandr davlati, miloddan avvalgi 3-asr o'rtalaridan Salavkiylar davlati qo'l ostida bo'lgan. Shu vaqtdan boshlab Finikiyada ellinlashtirish jarayoni kuchaygan. O'rta dengiz bo'yidagi Delos, Afina va boshqa shaharlarda finikiyalik savdogarlarning faktoriyalari va uyushmalari paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda Kiprda YunonFinikiya podsholigi vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 63 yildan boshlab Finikiya Rimning Suriya provinsiyasi tarkibiga kirgan. Astasekin finikiyaliklar Suriyaning boshqa aholisi tarkibiga singib ketgan.<sup>2</sup> Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri miloddan avvalgi II ming yillikda bu yerda undosh harflarning kashf etilishidir. Bu kashfiyot keyinchalik barcha harf-tovush tizimidagi

<sup>1</sup> “ARAB MAMLAKATLARI TARIXI”. Abdullayev Nodir Abdulhayevich, Qodirov Zikrilloxon Musaxonovich, Ikromov Shavkat Iskandarovich, Bekmuradov Sanjar Tursunmamatovich, Karimov Nodir Rahmonqulovich. T. 2018.Y

<sup>2</sup> V.V.Struve. “Qadimgi Sharq tarixi”-1941-yil

xatlarda ishlatiladigan bo'ldi. Tarixchilarning fikriga ko'ra, Finikiya yozuvi Bibl "psevdoiyeroglifik" yozuv, ya'ni so'zlardan tarkib topgan xat yoki Sinay yozuvi va uning ilk Falastin variantlaridan kelib chiqqan. Finikiya adabiyotining eng qadimgi namunalari Ugarit mifologik matnlari va Finikiya podsholarining yozishmalari (Bibllik Axiram va Ieximilk, Sidonlik Eshmunazar va boshqalar) dan iborat. Finikiya adabiy va tarixiy asarlari bizgacha yetib kelmagan, lekin so'nggi (hozirgacha uning haqiqatda ham mavjudligi aniq emas) yozuvlardan biri-Sanxotiaton maktublari zamonamizgacha yetib kelgan. Rim imperiyasi hukmronligi va ellinlar davrida Finikiyada yunon tilidagi adabiyot rivoj topdi: kosmogoniya va teogoniyaga oid Menandraning tarixiy afsonalari, Diy (miloddan avvalgi II-I asrlar), Feodot (milodiy I asr), Bobillik Filon (I-II asrlar) va boshqalarning asarlari. Bu mualliflarning ishlari "Tir solnomasi" va boshqa asarlarda aks etadi. Shimoliy Afrikada rivojlangan Finikiya adabiyoti, Gannon va Gamilkon dengizchilarining Atlantika okeanidagi sayohatlari haqidagi hikoyalar va qishloq xo'jaligi ishlarini samarali yuritishga bag'ishlangan Magon asarlari bizga ma'lum. Finikiya fani rivojida astronomik va geografik tadqiqotlar alohida o'rin tutgan. Finikiyaliklar antik falsafa rivojiga ham jiddiy hissa qo'shganlar. Finikiyalik faylasuf Mox atom ta'limoti asoschilaridan biri hisoblanadi. Yunonistonda Klitomax nomini olgan Diognetning o'g'li karfagenlik Gasturbal miloddan avvalgi II asrning so'nggi choragida Afina Ilmiy Akademiyasi rahbari lavozimini egallagan. Finikiyaliklar tomonidan ayni ellinlar davrida grammatik nazariya ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin. Finikiya shaharlari qadimdan rivojlanib, ular hunarmadchilik markaziga aylangan. Finikiyaliklar ta'sirida Suriya, Falastin va Kichik Osiyo xalqlari adabiyoti va madaniyatining boshqa sohalari rivoj topgan. Bu davrda Finikiyaning madaniy ta'siri finikiya alifbosi O'rta yer dengizi davlatlarida keng tarqalganligida namoyon bo'ladi. Ushbu madaniyatga ulkan ta'sir ko'rsatgan omillar din va mifologiya bo'ldi. Lekin bu sohalar manbalar tanqisligi va finikiya xudolarining ismlarini aytish taqiqlanganligi sababli yaxshi o'rganilmagan.<sup>3</sup> Finikiyada oliy xudoni El deb ataganlar. Buning ma'nosi xudo, uning rafiqasi Elat yoki Asherat (dengiz ruhi). Qolgan xudolar-podsholar (malk) yoki sohiblar (ball, vall), shu bilan birga, osmon xudosi-Baalshamem, quyosh xudosi (issiqlik egasi)-Baalxammon, shuningdek alohida joy, daryolar xudolari bo'lgan. Finikiya shaharlarining tanlangan xudolari bo'lgan, masalan Tirda-Melkart (shahar hokimi), Sidonda-Eshmun (tabib-davolash xudosi), Beritda-Buyuk Berit egasi, Biblda-(Finikiya umumiy xudolaridan biri) sevgi va hosildorlik xudosi Ashtarta (Astarta). Finikiyada, ayniqsa, hosildorlik xudosi keng e'tiqod qilingan edi. Ras-Shamradan topilgan mifologik dostonlarda arpani sug'orish, tok novdalarini ekish vaqtida qilinadigan qadimgi diniy urf-odatlar ta'riflangan. Xudo Mot yoz oxirida ma'buda Anat o'roqi bilan qirg'uvchi "yetilgan boshqoq" shaklida tasvirlanadi. Qadimgi finikiyaliklarning diniy qarashlarida o'lib-qayta tiriluvchi tabiat xudosi Ball va uning o'g'li Aliyyan obrazi alohida o'rin tutgan. Aliyyan to'g'risidagi afsona va bu xudoga e'tiqod yil fasllari almashinuvining "sirli ma'no"sini ham diniy, ham shoirona tarzda izohlab bergan. Bu diniy tasavvurlar Ras-Shamradagi qazishda topilgan mifologik dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ball va Aliyyan haqidagi dostonda aytilishicha, xudo Ball uchun hashamatli ibodatxona barpo qilinadi. Bu ibodatxonada Ball o'lim xudosi Mot (Motom) ustidan g'alaba qozonganini ma'lum qiladi. Biroq Ballga o'lim hamla qiladi va u o'g'li bilan birga narigi dunyoga rixlat qiladi. Bundan keyin, marhum xudolar sharafiga ado etiladigan motam marosimlari, hosil ma'budasi (ayrim manbalarda urush xudosi) Anatning o'lim xudosi Mot bilan kurashi, o'lgan xudolarni izlash, nihoyat, Ballning Mot ustidan g'alaba qozonishi va tirilishi haqida hikoya qilinadi. Bu qadimgi afsona hamda tabiat xudosi keng e'tiqod qilish keyinchalik xudo Adonisga sig'inishga asos bo'lib, so'ng bu e'tiqod Suriya va Finikiyada keng tarqaldi. Markazida mehrob joylashgan ochiq joylardagi ibodatxonalarda koinlar jamoasi joylashib, muhim siyosiy voqealar ro'y

<sup>3</sup> G.M.Bongard-Levin."Qadimgi sivilizatsiyalar tarixi"-1980-yil

bergan, shahar devoriga tamal toshi qo'yilgan, o'lim xavfi paydo bo'lgan hollarda taqvodor odamlar yosh farzandlarini qurbon qilganlar. Osmon xudosi Finikiya shaharlarida bosh tangri hisoblanib, u o'z ismi bilan emas, balki turli nomlar bilan atalgan. U oddiygina "ega" (Vaal), "shahar podshosi" (Melkart), "hokimiyat" (Molox) yoki "xudo"(El) deb atalgan.

Osmon xudosi Vaal yonida uning xotini Astarta (Ashtart, Asherat) joy egallagan. Osmon va yer tangrilari bilan birga o'lib-tiriluvchi o'simliklar xudosi ham e'zozlangan. Ko'pincha uni Adonis-"mening janobim" deb ataganlar. Ushbu tangrining ayrim sifatleri Vaal va uning singlisi Anat (ba'zi taxminlarga ko'ra, xotini Astarta) haqidagi mifologik dostonda o'z aksini topgan. Dostonning ayrim lavhalari mazmuni Osiris va uning singlisi Isida haqidagi Misr mifologik dostoniga yaqin. O'luvchi va qayta tiriluvchi xudo e'tiqodi bilan birga diniy dramalar ham vujudga kela boshladi. Ugarit matnlaridan birini aynan shunday diniy xarakterga ega bo'lgan drama sifatidatalqin qilish mumkin.<sup>4</sup>

#### Xulosa

Qadimgi Finikiya davlati o'zining iqtisodiy qudrati, dengizchilik san'ati va madaniy merosi bilan dunyo tarixida muhim o'rin tutadi. Ularning alifbosi, savdo tarmog'i va madaniy yutuqlari hozirgi zamon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Finikiya xalqi insoniyat tarixida kuchli dengizchi va savdogar sifatida o'z nomini abadiylashtirgan.

#### Adabiyot va manbalar:

1. ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 2016
2. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLADI.
3. F.BOYNAZAROV. QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
4. VSEVOLOD AVDIYEV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
5. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО-ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.

<sup>4</sup> . "Qadimgi dunyo tarixi" (V. V. Yerusolimskaya tahriri ostida), 1973 yil.

12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA “TADBIRKOR AYOL” UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
21. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san‘ati . Toshkent .2018.
22. Бобожонов, Бехруз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351